

# **Sinov laboratoriyasining (SL) Dasturiy ta'minotlarni (DT) axborot xavfsizligi talablariga muvofigligi bo'yicha sinovdan o'tkazish ketma-ketligi:**

## **▼ I. sinov uchun obyektlarni qabul qilish**

- ▼ A. dasturning tavsifi (quyidagi ma'lumotlarning mayjudligini tekshirish):
  - ▼ 1) DT haqida umumiylar:
    - DTning nomi va versiyasi;
    - DT tarkibi haqida ma'lumot (DTga tarkibiga kiruvchi fayllarning nazorat summalarini ko'rsatgan holda);
    - DTning ishlash muhiti, dasturlash tili, IDE, ma'lumotlar bazasi, OS haqida ma'lumot;
    - DTning maqsadi va ko'lalsh sohalari haqida ma'lumot;
    - DTni qo'llashdagi cheklar va DT o'rnatish va ishlatish uchun zarur bo'lgan texnik vositalarga qo'yilgan minimal talablar;
    - DTni o'rnatish va ishlatish jarayonida ma'lumot almashish amalga oshiriladigan tashqi serverlar ro'yxati;
    - Tashqi serverlarga uzatiladigan va qabul qilinadigan ma'lumotlar turlari.
  - ▼ 2) DT arxitekturasining tavsifi:
    - Kliyent-Server axborot tizimining (AT) grafik blok-sxemasi;
    - Kliyent-Server ATning har bir asosiy qismi (moduli) tavsifi;
    - Kliyent-Server ATning boshqa axborot tizimlari bilan aloqalarini tavsiflash (ishlatiladigan protokollar, portlar, shuningdek uzatiladigan ma'lumotlar).
  - ▼ 3) Ma'lumotlar bazasining (MB) tavsifi:
    - MBning turi va arxitekturasi;
    - MB va jadvallar grafik blok-sxemasi (bir nechta MBdan foydalanilganda);
    - Har bir jadvalning tavsifi va jadvalda saqlaniladigan obyektning ma'lumotlar tarkibi.

- ▼ 4) DT manba kodining tavsifi:
  - - Manba kodining tuzilishi;
  - - Komponentlarning tavsifi;
  - - Har bir komponent fayllar tavsifi;
  - - DTda foydalanilgan tarmoq funksiyalari tavsifi.
- ▼ B. Administrator qo'llanmasi (quyidagi ma'lumotlarning mavjudligini tekshirish):
  - - DTning nomi va versiyasi;
  - - DT ishlab chiqaruvchi tashkilotning nomi;
  - - DT ishlab chiqaruvchi tashkilotning yuridik manzili;
  - - Ma'murlarga taqdim yetilgan dasturiy ta'minotning funksional imkoniyatlari bilan bog'liq usullar, texnikalar va ishlash qoidalarining tavsifi.
  - - DTni o'rnatish, qabul qilish, ishlatish jarayoni bo'yicha ma'lumotlar va Administratorga qo'yiladigan talablar.
- ▼ C. Foydalanuvchi qo'llanmasi (quyidagi ma'lumotlarning mavjudligini tekshirish):
  - - DTning nomi va versiyasi;
  - - DT ishlab chiqaruvchi tashkilotning nomi;
  - - DT ishlab chiqaruvchi tashkilotning yuridik manzili;
  - - Ma'murlarga taqdim yetilgan dasturiy ta'minotning funksional imkoniyatlari bilan bog'liq usullar, texnikalar va ishlash qoidalarining tavsifi.
  - - DTni o'rnatish, qabul qilish, ishlatish jarayoni bo'yicha ma'lumotlar va Foydalanuvchiga qo'yiladigan talablar.
- ▼ D. DT manba kodi (to'liqlikni tekshirish):
  - - quiy tizimlar, qismlar, komponentlar, modullar uchun dasturiy ta'minot tavsifida ko'rsatilgan barcha fayllarning soni, nomi va hajmining muvofiqligini tekshirish.
- ▼ E. Bajariladigan fayllar (exe, jar, va boshqalar) (foydalanuvchi interfeysida quyidagi ma'lumotlar mavjudligini tekshirish):
  - - DTning nomi va versiyasi;
  - - DTni ishlab chiqaruvchi tashkilotning nomi;
  - - DTni ishlab chiqaruvchi mamlakatining nomi.
- ▼ F. Sinov stendi

- - DT tavsifida ko'rsatilgan minimal talablarga muvofiqligi bo'yicha to'liqligini tekshirish;
  - - foydalanuvchi rolining har bir turi uchun hisob qaydnomasi mavjudligi (shu jumladan Administrator huquqlari bilan kirish).
- ▼ **II. Ts 28189200-07:2021 metodologiyasi asosida analizator yordamida manba kodini tahlil qilish**
- A. nazorat kompilyatsiyasi va yig'ish
  - B. kompilyatsiya qilingan DTni taqdim etilgan DT bilan taqqoslash
  - C. analizator yordamida DT manba kodini zaifliklarni aniqlash uchun skanerlash
  - D. DT manba kodini fayl darajasida uning tavsifiga muvofiqligini tahlil qilish
  - E. DT manba kodini tarmoq funksiyalari tavsifiga muvofiqligini tahlil qilish
  - F. manba kodida ortiqcha matnlar va fayllarning yo'qligi
  - G. olingan natijalarni tahlil qilish
- **III. Sandbox yordamida AT tarmoq faoliyatini tekshirish (tekshirish muddati 1 oydan 3 oygacha)**
- ▼ **A. Bajariladigan fayllarni o'rnatish va ishga tushirish**
- ▼ B. AT funksionalini tekshirish (Ts 28189200-06:2021 metodologiyasi asosida):
- - Texnik hujjatlarni tahlil qilish;
  - - Parolni belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish;
  - - Parolsiz tizimga kirish imkoniyati yo'qligini tekshirish;
  - - "Standart" parol bilan tizimga kirish mumkin emasligini tekshirish;
  - - Administrator huquqlari bilan tizimga kirish imkoniyatini tekshirish;
  - - Ko'p sonli kirish so'rovlari haqidagi ma'lumotlarning qayd etilishini tekshirish;
  - - Bajariladigan fayllarning nazorat summasini (kompilyatsiya qilingan tillardagi DT uchun) yoki ZIP- formatidagi manba kodi arxivini olish va taqqoslash (interpretatsiya qilingan tillardagi DT uchun);
  - - Tizim yoki MBni zaxira nus'halarini olish va tiklanilishini tekshirish;
- C. aniqlangan tarmoq faoliyatini tahlil qilish
- **IV. Sinov natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash**
- **V. aniqlangan zaifliklar va nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun ariza beruvchiga hisobot taqdim etish**

- **VI. Ariza beruvchi aniqlangan zaifliklar va nomuvofiqliklarni bartaraf etganidan keyin DTni takroriy sinovdan o'tkazish**
- **VII. Sinov hisobotlarini ro'yxatdan o'tkazish, tasdiqlash uchun AKT SOga taqdim etish**